

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 439 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

MUNDARIJA

Innovatsion siyosatni amalga oshirish yo'nalishlari.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari.....	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari.....	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi.....	41
Idrisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari.....	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili.....	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari.....	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy.....	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности.....	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth?	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi.....	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems.....	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati.....	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	



Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Davlat budjetining solikli daromadlari tahlili	139
Abduraimova Nigora Radjabovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon	143
To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida).....	151
Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari	161
Nosir Maxmudov, Lola Azimova	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari	167
Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan	
Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
Sherxon Tuychiyev	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
Ergashev Jahongir Baxodirovich	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari	180
Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich	
Budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
Azizova Zilola Lochin qizi	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahallilashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari	191
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi	
Анализ прибыли агропромышленности	204
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach	209
Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloevna	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries	213
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli	216
Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari.....	230
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	



Innovasion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
Zarina Ashurova	
Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri.....	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	
SWOT-анализ использования социальных сетей в туристической индустрии узбекистана	279
Касимова Зилола Гуламиддиновна	
Germaniya tajribasidan foydalanish orqali o'zbekistonda turizm sohasidagi kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalalari	287
Xamidova Mo'tabarxon Abdumalik qizi, Ochilov Akram Odilovich	
Blockchain texnologiyasining bank operatsiyalari xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni.....	291
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
Tijorat banklarini reytingini aniqlashda bankometr modelidan foydalanish yo'llari.....	294
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Значение business city как инфраструктурного объекта	303
Солиева Умида Алишер кизи	
The potential for the development of wage labor as a factor	308
Usmanov Ilkhom Achilovich	
Ways to improve the organizational and economic mechanism of business tourism in Uzbekistan.....	312
Musayeva Shoirazimovna, Usmanova Dilfuza Ilkhomovna	
Kichik biznes subyektlarining faoliyatini baholashning metodologik asoslari	318
Mavkulov Ravshan Ne'matjonovich	
Kichik korxonalarini rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanish.....	324
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Mamlakatimizda intensiv baliqchilikni rivojlantirishning dolzarb masalalari	328
Mamatqulov Nurbek O'razali o'g'li	
Уменьшение выбросов парниковых газов и переход к возобновляемым источникам энергии	331
Р.Т. Шомуродов, И.И. Бахадиров, Р.Т. Умаров, И.Ш. Жамолиддинова	
Ipoteka bozorida investision muhitni yaxshilash yo'llari.....	341
Abdullaev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
Muammoli kreditlar: yechimlari va istiqbollari.....	346
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich	
Ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarish va ta'sirini baholash uslubiyati.....	351
Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich	
Zamonaviy sharoitda PR (jamoatchilik bilan aloqalar)ning mazmuni va ahamiyati.....	356
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	
O'zbekiston moliya tizimida mahalliy moliyaning o'ziga xos xususiyatlari	361
Xikmatillayeva Dildora Shavkat qizi	



Rahbar kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish ko'nikmalarini takomillashtirish Shadiyev Sherzod Fayzullayevich	366
Improvement of marketing communication strategies in chemical industry enterprises Muminova Dildora Dilshadovna	375
Mikromoliya tashkilotlarida islom moliyaviy instrumentlarini joriy etishni takomillashtirish Axmedova O'g'ilshod Musurmonqul qizi	380
Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflashning nazariy jihatlarini Qodirova Nafisa Ilhomovna	384
Importance-performance analysis as a useful tool for marketing audit processes of HEIs in Uzbekistan Nurillo Umarkhonov	388
Тенденции энергетики будущего: шаги в новую фазу Абдураимова Нигора Раджабовна	396
Chet mamlakatlar pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari Tursunov Zohidxo'ja Orifovich	405
Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklar faoliyatini statistik tadqiq etish xususiyatlari Kutliyev Dilshod Orifovich	412
O'zbekistonda suv tanqisligining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishgata'siri Maxmudov Nosir Maxmudovich, Alimova Guzal Alisherovna	419
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning kelajak istiqbollari Egamberdiyev Humoyun	424
O'zbekiston respublikasi davlat budjeti daromadlarini simpleks usulida optimallashtirish Fayzullayev Doston Mahmud o'g'li	428
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishning holati hamda rivojlanish istiqbollari (namangan viloyati misolida) Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	433



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISH VA EKSPORT QILISHNING HOLATI HAMDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)



Jo‘raboyeva Shohida Kamoliddin qizi

Namangan muhandislik-texnologiya instituti, doktorant

Annotatsiya: Maqolada sanoatning iqtisodiyotdagi o'rnini, Namangan viloyatida sanoat korxonalari sonining o'zgarish dinamikasi, sanoat, xususan, to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish holati, uning YAHM va sanoatdagi ulushi, sanoat mahsulotlarini eksport qilishning holati tahlil qilingan, viloyatning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, ishlab chiqarish sanoati, to'qimachilik sanoati, yalpi hududiy mahsulot, eksport, texnologiya.

Abstract: The article analyzes the significance of the industrial sector within the regional economy, focusing on the dynamics of industrial enterprise growth in the Namangan region. It provides an analysis of the current state of industrial production, with particular emphasis on the textile industry, and evaluates its contribution to the Gross Regional Product (GRP) and the overall industrial output. Additionally, the article assesses the export performance of industrial products and offers recommendations aimed at enhancing both production capacity and export potential within the region's industrial sector.

Key words: industry, manufacturing industry, textile industry, gross regional product, export, technology.

Аннотация: В статье анализируется роль промышленности в экономике, динамика изменения количества промышленных предприятий в Наманганской области, состояние производства промышленной, в частности текстильной продукции, ее доля в валовой региональный продукт ВВП и промышленности, состояние экспорта промышленной продукции, даны предложения и рекомендации по увеличению производственного и экспортного потенциала промышленной продукции региона.

Ключевые слова: промышленность, обрабатывающая промышленность, текстильная промышленность, валовой региональный продукт, экспорт, технология.

KIRISH

O'zbekiston bugungi kunda Markaziy Osiyodagi eng jadal rivojlanayotgan, mustaqil davlatlardan biri hisoblanadi. Noyob tabiiy-iqlim sharoiti, boy mineral resurslar, rivojlangan qishloq xo'jaligi va kuchli mehnat salohiyati O'zbekiston Respublikasida nafaqat qishloq xo'jaligi, balki qudratli sanoatni ham ustuvor rivojlantirish bilan ko'p tarmoqli milliy iqtisodiyotni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qildi [3].

Ma'lumki, sanoat milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, xomashyo, material, yoqilg'i, energiya va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yoki aholiga xizmat ko'rsatuvchi subyektlar majmui hisoblanadi. Shuningdek, milliy iqtisodiyotning jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari taraqqiyot darajasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan yetakchi tarmoqdir.

O'zbekiston Respublikasi 1991-yilda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach boshqa sohalar qatorida sanoatda ham tub ijobiy siljishlar amalga oshirildi. Xususan, ko'pgina tarmoqlardagi sanoat korxonalari davlat tasarrufidan chiqarildi, xususiylashtirildi, davlat aksiyadorlik, korporativ, jamoa, xususiy va boshqa tashkiliy huquqiy mulk shakllariga aylantirildi [1].



Natijada sanoat tarmoqlari tizimida ham tadbirkorlik, kichik biznes kabi tushunchalar kirib keldi. O'zbekiston 2015–2023-yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 6,7 barobarga ortib 655,8 trln. so'mga yetdi. Mutlaqo yangi, yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat tarmoqlari, xususan, neft, kimyo, avtomobilsozlik, qishloq xo'jaligi, temiryo'l mashinasozligi, to'qimachilik sanoati, zamonaviy qurilish materiallari sanoati sohasi izchil rivojlanmoqda. Tabiiyki, bu hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridandir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI


Mintaqalar sanoatini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, sanoatni diversifikatsiyalash asosida rivojlantirish masalalari Askerov R.E. [1], Axmedov I.A. [2], Vasilyeva R.I., Mariyev O.S., Voytenkov V.A., Urazbayeva A.R. [3], Djalilov D.A., Zokirova N.Sh. [4], Xotamov I.S. [5] lar tomonidan, eksport mahsulotlari ishlab chiqarish masalalari Kambarova Sh.M. [6] tomonidan, sanoat mahsulotlari eksportini oshirishning transport-logistika masalalari Matkarimov K.J. [7, 8] va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun Namangan viloyatida 2017–2023-yillarda sanoat dinamikasi, sanoat hajmi, Namangan viloyati iqtisodiyotida sanoatning o'zni to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni har tomonlama tizimli tahlil qilish amalga oshirildi. Namangan viloyati iqtisodiyotida sanoatning o'rnini aniqlash uchun taqqoslash, guruhlash va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Namangan viloyatida keyingi yillarda yangi sanoat korxonalarini tashkil etish sezilarli darajada ortdi. 2015-yilda 362 ta yangi sanoat korxonasi tashkil etilgan bo'lsa, 2023-yilda 1495 ta yangi korxona ochildi. Yangi korxonalar tashkil etilishi bilan birga tugatilayotgan korxonalar ham mavjud. Keyingi yillarda yangi ochilayotgan korxonalarning o'sish sur'ati tugatilayotgan korxonalarning soniga nisbatan yuqori o'sishga ega. 2015-yilda yaratilgan va tugatilgan korxonalar o'rtasidagi farq 220 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 993 tani tashkil etdi. Natijada 2015–2023-yillarda sanoat korxonalari soni 2,8 barobarga ortib 8249 taga yetdi (1-rasm).



1-rasm. Namangan viloyatida sanoat korxonalari sonining o'zgarish dinamikasi.

Namangan viloyatida sanoatning YaHMDagi ulushi oraliq yillarda kamaygan bo'lsada (2010–2014-yillar), umuman olganda, o'sish kuzatilgan. 2014–2016-yillarda YaHMDa sanoatning hisyasi deyarli o'zgarmas holda qolgan bo'lsa ham 2017-yildan boshlab YAHMda sanoatning hisyasi yildan yilga oshib bormoqda. 2017-yilda bu ko'rsatkich 30,1%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yildan boshlab 40%dan oshishiga erishildi va 2023-yilda 46,5 % ga yetdi (1-jadval).

Viloyatning yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) 2017-yilda 15311,1 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 47112,6 mlrd. so'mni tashkil etdi, ya'ni bu yillarda o'sish 3,1 barobarni tashkil etdi.



Bu yillarda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish ham 4615,5 mlrd. soʻmdan 21906,8 mlrd. soʻmgacha ortdi, 2017–2023-yillarda oʻsish 4,7 barobarni tashkil etdi. Yillik oʻrtacha oʻsish oʻrtacha 13-14 % ni tashkil etdi. Eng yuqori oʻsish surʼati 2021-yilda qayd etildi, yaʼni oʻsish surʼati 118,2 %ni tashkil qildi.

1-jadval. Namangan viloyatining YaHMda toʻqimachilik sanoatning ulushi.

Koʻrsat-kichlar	Oʻlchov birligi	Yillar						
		2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Yalpi hududiy mahsulot	mlrd. soʻm	15311,1	18809,6	23764,0	27863,0	34194,1	40565,1	47112,6
	oʻsish surʼati, %	103,4	104,0	107,4	105,1	109,7	106,6	105,4
Sanoat mahsuloti (SM)	mlrd. soʻm	4615,5	6586,6	8818,1	11011,9	14695,1	18120,5	21906,8
	YHM dagi ulushi, %	30,1	35,0	37,1	39,5	43,0	44,7	46,5
Ishlab chiqaradigan sanoat (IchS)	mlrd. soʻm	4353,8	6204,3	7996,8	9265,7	12299,5	14915,3	18062,1
	SM dagi ulushi, %	94,3	94,2	90,7	84,1	83,7	82,3	82,4
	YHM dagi ulushi, %	28,4	33,0	33,7	33,3	36,0	36,8	38,3
Toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	mlrd. soʻm	1232,1	2132,0	2465,4	2495,3	4031,0	5324,4	5446,4
	IchS dagi ulushi, %	28,3	34,4	30,8	26,9	32,8	35,7	30,2
	SM dagi ulushi, %	26,7	32,4	28,0	22,7	27,4	29,4	24,9
	YHM dagi ulushi, %	8,0	11,3	10,4	9,0	11,8	13,1	11,6
Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari, ming soʻm	Viloyat boʻyicha	1724,8	2416,0	3169,8	3878,7	5068,6	6112,9	6869,3
	Respublika boʻyicha oʻrtacha koʻrsatkich	4594,7	7141,0	9604,9	10771,8	13061,9	15520,2	18011,0

Biroq oʻsish surʼatlarining yuqoriligi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish boʻyicha viloyatning respublika boʻyicha ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlaridagi ulushi yuqori boʻlishini taʼminlay olmayapti. Bu koʻrsatkich boʻyicha viloyatning ulushi 2021-yilda 3,2% ni, 2022-yilda 3,3 %, 2023-yilda esa 3,1 % ni tashkil etgan. Bu koʻrsatkich ayni paytda sanoat ishlab chiqarish boʻyicha yetakchi boʻlgan hududlarda nisbatan yuqoridir. Masalan, 2022-yilda bu koʻrsatkich Toshkent shahrida – 19,7 % ni, Toshkent viloyatida – 17,0% ni, Navoiy viloyatida 15,3 % ni va Andijon viloyatida – 9,8 % ni tashkil etadi.

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 1724,8 ming soʻmdan (2017-y.) 6869,3 ming (2023-y.) soʻmga yetkazildi. 2017–2023-yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish aholi jon boshiga qariyb 4 barobarga ortdi (1-jadval).

Respublika boʻyicha aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 4594,7 ming soʻmdan (2017-y.) 18011,0 ming soʻmga (2023-y.) ortganligini eʼtiborga olsak, viloyat koʻrsatkichi bu yillarda 2,66 barobardan 2,62 barobargacha yaxshilangan. Biroq hamon sezilarli darajada ortda qolmoqda. Bu koʻrsatkich boʻyicha Navoiy viloyati (95361,7 ming soʻm), Toshkent shahri (41228,9 ming soʻm), Toshkent viloyati (34990,5 ming soʻm) va Andijon viloyati (21908,0 ming soʻm) yetakchilik qilmoqda.

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish boʻyicha Namangan shahri yetakchilik qilmoqda. Namangan shahri ulushi 37,3 % ni tashkil etadi. Tumanlar ichida Toʻraqoʻrgʻon (20,5%) va Chust (9,0 %) yetakchi tumanlar boʻlsa, Chortoq (2,4%), Yangiqoʻrgʻon (1,5%) va Norin (1,4%) tumanlarida viloyat sanoat mahsulotlarining eng kam qismi ishlab chiqarilmoqda.

2017–2023-yillar davomida viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 4,5 barobarga ortgan boʻlsa, Toʻraqoʻrgʻon tumanida 10,4 barobar, Chust tumanida 10,0 barobar, Mingbuloq tumanida 9,6 barobar oʻsishga erishilgan.



Viloyat sanoat ishlab chiqarishida to'qimachilik mahsulotlari (31,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari (16,9 %), kiyim (16,4 %), nometall material mahsulotlari (6,7 %) yetakchilik qilmoqda (2-jadval).

Viloyatda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2017-yilda 1232,1 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, keyingi yillarda oshib borishi hisobiga 2023-yilda 5446,4 mlrd so'mga yetdi, ya'ni bu yillarda o'sish 4,4 barobarni tashkil etdi. To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat iqtisodiyotining muhim sohasi bo'lib, 2023-yilda ishlab chiqaradigan sanoatining 30,2 % ini, sanoat mahsulotlarining 24,9 % ini, YaHM ning 11,6 % ini tashkil etmoqda.

Viloyatda to'qimachilik mahsulotlarining 64,6 % i yirik korxonalar tomonidan, 34,8 % i mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan, 0,6 % i yakka tartibdagi mehnat faoliyati va uy xo'jaligi tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Keyingi yillarda mikrofirmalar va kichik korxonalarning ulushi ortib borayotganligi kuzatilmoqda.

2-jadval. Namangan viloyati ishlab chiqarish sanoatining tarkibi (% da).

Ko'rsatkichlar	Yillar								
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Ishlab chiqaradigan sanoat	100	100	100	100	100	100	100	100	100
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	21,9	22,0	28,3	34,4	30,8	26,9	32,8	35,7	30,2
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	28,5	28,8	26,8	20,5	22,3	23,9	20,0	19,5	16,9
Kiyim ishlab chiqarish	11,7	13,9	13,3	13,2	13,8	15,8	11,6	11,3	16,4
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	4,6	4,4	4,1	4,3	4,6	5,5	7,3	4,7	6,7
Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	2,0	1,8	3,9	3,6	2,7	3,8	4,2	4,7	4,9
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	1,6	3,4	1,6	1,2	1,0	2,1	1,8	4,4	4,1
Ichimliklar ishlab chiqarish	9,4	4,8	4,4	3,9	4,6	5,4	4,6	3,6	4,2
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	2,8	1,8	2,3	3,5	3,5	3,5	2,5	3,5	3,9
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	12	10,9	8,2	8,5	9,2	7,2	7,8	6,1	12,7

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga, maxsus sanoat zonalarini tashkil etishga jiddiy e'tibor berilayotgan bo'lsada, ishlab chiqarish jarayonida, asosan, quyi texnologiyalardan foydalanilmoqda. Quyi texnologiyalardan foydalanish ulushi hamon 70 % dan yuqoriligicha qolmoqda. Yuqori va o'rta-yuqori texnologiyalarning ulushi esa 10 % atrofida saqlanib qolmoqda (3-jadval). Respublika bo'yicha esa bu ko'rsatkich mos ravishda 35 % va 25 % ni tashkil etmoqda. Bu esa yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish sur'atini oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

3-jadval. Namangan viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalanilayotgan texnologiyalarning ulushi.

Yillar	Yuqori texnologiyali	O'rta-yuqori texnologiyali	O'rta-quyi texnologiyali	Quyi texnologiyali
2019	3,5	6,0	10,7	79,9
2020	2,6	6,9	12,4	78,1
2021	1,5	6,2	13,2	79,1
2022	1,1	9,0	12,8	77,1
2023	1,5	8,4	15,8	74,3

So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan Namangan viloyati uchun muhim soha bo'lgani holda aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.



To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Viloyat eksporti 2022-yilda 584,4 mln AQSH dollarini, 2023-yilda 558,4 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, to'qimachilik mahsulotlari eksporti mos ravishda 336,4 va 308,7 mln AQSH dollari tashkil etdi. 2023-yilda to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 55,3 foizini tashkil etdi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,4 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (49,6 %), turli xil tayyor buyumlar (24,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (15,5 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2023-yilda MDH mamlakatlariga 441,0 mln AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 79,0 % ini tashkil etdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari (35,3%), tayyor trikotaj kiyimlar (30,3%) asosiy ulushni egallagan. 2023-yilda 351 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 42 ta davlatiga eksport qilindi.

Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to'qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya (76,3 % – 235,6 mln. AQSH dollari), Qozog'iston (6,2 % – 19,2 mln. AQSH dollari) va Qirg'iziston (5,2% - 16,1 mln. AQSH dollari) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.

So'nggi yillarda viloyatda sanoat salohiyatini mustahkamlash va hududlarni kompleks rivojlantirish, shahar va tumanlarda yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish hisobiga aholini ish bilan band qilishni kengaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar qabul qilinishi sanoat tarmog'ini keyingi yillarda ham yuqori sur'atlarda o'sishiga zamin yaratmoqda.

Viloyat sanoatini hududlar va tarmoqlar bo'yicha mutanosib rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-apreldagi "2022–2026-yillarda Namangan viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 211-son Qarorining qabul qilinishi hamda sanoat korxonalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hisobiga 2026-yilga borib 27,3 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari va 9,4 trln. so'mlik xalq iste'mol mollari ishlab chiqarilib, bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan mos holatda 1,9 va 1,4 martaga ortadi [2].

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining respublika umumiy sanoat hajmidagi ulushini 2026-yilga borib bu ko'rsatkich 6,0 foizga yetkaziladi. 2022–2026-yillar mobaynida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni 132,5% ga oshirish rejalashtirilgan.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sohasida 2022–2026-yillarda umumiy qiymati 4,8 trln. so'mlik 235 ta loyihalar amalga oshirilishi natijasida 29220 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi. Yillik ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir bo'lgan 1,6 trln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, byudjetga tushum 265,3 mlrd. so'mni tashkil etadi.

Viloyatda ishlab chiqarilayotgan paxta tolasini qayta ishlash darajasini sezilarli darajada oshirish, tashqi bozorda raqobatbardosh to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va shu asosda yangi ish o'rinlarini yaratishga alohida e'tibor qaratiladi.

2026-yilga kelib, viloyatning 9 ta hududida 8 ta paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan 107,4 ming tonna paxta tolasini, 92,6 ming tonna kalava ip, 243,7 mln. pagona metr gazlama, 267,7 mln. dona trikotaj mahsulotlari viloyatning 225,0 ming tonna yetishtirilgan paxtasi hamda 100,0 ming tonnaga yaqin boshqa viloyatlar paxta xomashyosi hisobidan quvvatlar yaratiladi.

Jumladan, Namangan shahrida "Iftixor kiyim sanoat" MCHJ (1,3 mln. dona tayyor tikuv mahsulotlari), "Jahon yuksalish tekstil" MCHJ (1,0 ming tonna momiq sochiq), Norin tumanida "Norinteks" MCHJ (6,0 ming tonna ip kalava), Pop tumanida "Shofirkon ekvotirial teks" MCHJ (3,0 mln. dona tayyor tikuv mahsulotlari), To'raqo'rg'on tumanida "OQTOSH TEKSTIL" MCHJ (3,2 ming tonna momiq sochiq), Namangan shahrida "Art soft xolding" MCHJ (22,5 ming dona momiq) tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar hisobiga ip kalavani qayta ishlash darajasi 88,0%ga ortadi, 100,3 ming tonna ip kalava (mavjud quvvatga nisbatan 1,2 barobarga o'sish), 296,6 mln.kv.m. ip gazlama (1,8 barobar), 293,6 mln.dona tayyor tikuv mahsulotlari (1,3 barobar), 27,7 ming tonna trikotaj mato (5,3 barobar) ishlab chiqarish quvvatlari yaratiladi hamda sohaning eksport salohiyati 140,0 mln. dollarga qo'shimcha ravishda oshadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Har bir mamlakat o'zining iqtisodiy rivojlanish strategiyasini belgilagan holda islohotlarni amalga oshiradi. Shunday ekan, O'zbekiston ham o'z strategik rejalari asosida iqtisodiy rivojlanishni davom ettirayotganligi xalq manfaati va farovonligi uchun qo'yilayotgan muhim qadamdir. Ushbu amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, ya'ni sanoat sohasidagi modernizatsiya jarayonlari mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Sanoat sohasining rivojlanishi nafaqat mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlaydi, balki mam-



lakatda ish o'rinlari yaratilishi hamda mahsulotlarning jahon bozorlariga chiqib borishini ham ta'minlaydi. Mazkur yangilanishlar, ya'ni yangi-yangi sanoat korxonalarining tashkil etilishi mamlakat kelajagini ham belgilab beradi.

Istiqbolda Namangan viloyatida to'qimachilik sanoatini rivojlantirishni quyidagi ustuvor yo'nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- mavjud salohiyat, iqtisodiyot va aholi talablaridan kelib chiqqan holda hududiy sanoat o'rnida mahalliy sanoatni shakllantirish;
- yuqori texnologiyalarga asoslangan kichik to'qimachilik korxonalarini joylashtirish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash;
- kichik to'qimachilik korxonalarini mahalla va qishloqlarda joylashtirish tizimini ishlab chiqish;
- to'qimachilik korxonalarini joylashtirishda taklif etilgan omillar tizimi bilan bir qatorda kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni e'tiborga olishni ta'minlash.
- ichki va tashqi bozorlarda katta talabga ega bo'lgan to'qimachilik sanoati tarmoqlarining yuqori talabgir mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini yanada modernizatsiya qilish, birinchi navbatda, to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari jalb qilishni kengaytirish yo'li bilan;
- raqobatbardosh sanoat ishlab chiqarishlari sonini ularni modernizatsiya qilish, jumladan, samarasiz korxonalarni qayta tashkil qilish va resurslar tejamkorligini rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar o'tkazish yo'li bilan oshirish;
- mablag'larni yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun jamlash, zarur muhandislik va ijtimoiy infratuzilma bilan ta'minlangan ixtisoslashtirilgan hududlarda (faoliyat yuritilmayotgan binolar va yengil yuklangan ishlab chiqarish) sanoat parklari va kichik sanoat zonalarini tashkil etish.
- to'qimachilik sanoati tarmoqlariga ishlab chiqarishni tashkil etishning erkin zonalar, klasterlar, sanoat zonolari kabi zamonaviy shakllaridan foydalanib investitsiyalar jalb etishni rag'batlantirish;
- viloyatda yuqori texnologiyali va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan to'qimachilik sanoatini rivojlantirish orqali sanoatning noan'anaviy sohalarini rivojlantirishga investitsiyalar o'zlashtirishni faollashtirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. "Ўзбекистон". 2017 й. 6-б.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 25 апрелдаги "2022-2026 йилларда Наманган вилояти ҳудудларини комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш ва аҳоли турмуш даражасини янада яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ги 211-сон Қарори.
3. Миркомиллов М. Н. Развитие промышленности и её роль в экономике Республики Узбекистан. Экономика и финансы, 2017, 10. Стр. 25-38.
4. Хабибуллаев Б.А. Наманган вилоятининг саноати ривожланиш жараёнлари (1991-2021 йиллар). Фундаментал тадқиқотлар журналі I жилд, 12-сон. Тошкент -2023 йил. 9-14 бетлар.
5. Аскеров Р.Э. Диверсификация экономики и экспорта в Азербайджане. Економічна наука. №5/2016. Стр. 49-52.
6. Ахмедов И.А. Экспорт маҳсулотлари таркибини диверсификация қилиш ва янги бозорларга чиқиш давр талаби. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журналі. № 4, июл-август, 2016 йил. 1-12-бетлар.
7. Васильева Р.И., Мариев О.С., Войтенков В.А., Уразбаева А.Р. Факторы экспортной диверсификации: эконометрический анализ промышленных регионов России. Экономика региона, Т. 18, вып. 3 (2022). Стр. 895-909.
8. Джалилов Д.А., Зокирова Н.Ш. Анализ диверсификации отраслей экономики республики Узбекистан. Вестник науки и образования № 10(64). Часть 4. 2019. Стр. 62-65.
9. Хотамов И.С. Ўзбекистонда саноат маҳсулотлари экспорти диверсификацияси. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz. 421-429 бетлар.
10. Камбарова Ш.М. Кичик бизнес корхоналарида маҳсулот сифатини ошириш ва рақобатбардошлигини таъминлаш – экспортбон маҳсулот ишлаб чиқариш асоси (тўқимачилик корхоналари мисолида). Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2021, 6(142). 28-34-бетлар.
11. Matkarimov K.J. Transport logistics: current problems, development initiatives. The American journal of applied sciences 3 (04), 98-104.
12. Matkarimov K.J. O'zbekistonning xalqaro logistika samaradorligi indeksidagi o'rni va uni yaxshilash istiqbollari. "O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash muammolari: nazariya, amaliyot va strategiya" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Materiallar to'plami 2-qism. 2023-yil 17-noyabr. 133-138-betlar.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Shahzod Avilqulov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

